

O'ZBEK TILIDAGI ARABIZMLAR XUSUSIDA
(holat kategoriyasi misolida)

Rasulova Ruxshona Ikromjon qizi
Andijon davlat universiteti talabasi
Umarov Adaxamjon Abdusalomovich
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
umarsalom@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan aniqlik artiklli arabizmlar semantikasi, qo'llanilish qamrov doirasi tahlil qilingan. Badiiy matnlardan olingan misollar orqali yanada keng tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: o'zlashmalar, holat kategoriyasi, ko'makchi, izofa birikmasi, arab tili, o'zbek tili, semantika.

Аннотация: В данной статье анализируются семантика и сфера употребления арабизмов определенного артикля, заимствованные из арабского языка в узбекский. Арабизмы проанализированы изучены на примерах из художественных текстов.

Ключевые слова: заимствования, надежная категория, вспомогательный, суперпозиция, арабский язык, узбекский язык, семантика.

Abstract: This article analyzes the semantics and scope of use of Arabic in the plural, borrowed into the Uzbek language from the Arabic language. Further study on examples from literary texts.

Key words: borrowings, case category, auxiliary, superposition, Arabic language, Uzbek language, semantics

Har bir tilda mavjud muayyan grammatik kategoriyalar o'ziga xos bo'lib, ma'lum vazifani bajarib kelishi bilan ahamiyatlidir. Grammatik kategoriyalar turli tillarda turlicha ifodalanadi. Arab tilida ismlarning grammatik kategoriyalari 4 ta bo'lib, ular quyidagicha: 1.Jins kategoriyasi; 2.Kelishik kategoriyasi; 3.Son kategoriyasi; 4.Holat kategoriyasi.

Ta'kidlangan grammatik kategoriyalardan holat kategoriyasi alohida e'tiborga molikdir.

Nutq jarayonining borishiga qarab jumladagi predmet yoki shaxsni ifodalagan so'z aniq yoki noaniq holatda keladi. So'zlovchiga oldindan ma'lum bo'lgan so'z aniq, noma'lum bo'lgani noaniq holatda bo'ladi. Shuningdek, so'zni aniq holatdaligini ifodalash uchun **ال** belgisidan foydalaniladi, noaniq holatdaligini ko'rsatib turadigan belgi esa so'zning tanvinga tugagan shaklidir¹.

Ingliz tilida esa aniq holatni ifodalash uchun **the** artikli, noaniq holatni ifodalash uchun esa **a/an** noaniq artiklida foydalaniladi. O'zbek tilida holat kategoriyasini aniqlab turuvchi o'ziga xos belgi mavjud emas.

¹ "Arab tili"./ M.Hasanov. O'quv qo'llanma. –T. 2019

Arab tilidan o'zlashgan va hozirda o'zbek tilidagi yaxlit so'zga aylanib qolgan bir qancha so'zlar o'zbek tili lug'atidan o'rin olgan. O'zbek tilidagi arabizmlarni, aniqrog'i arabchadan, aniqlik artikli bilan o'zlashib qolgan so'zlarni 3 ta guruhga bo'lishimiz mumkin: 1. Odatiy ishlatiladigan so'zlar; 2. Atoqli otlarning bir qismiga aylanib qolgan so'zlar; 3. Aniqlik artikli birinchi keladigan asar nomlari; 4. Izofa zanjiri qoidasi asosida yozilgan asar nomlari

Kundalik turmushda foydalaniladigan eng faol aniqlik artiklidagi so'zimiz: "Assalomu alaykum" tarkibida aniqlik artikli mavjud. So'zning boshida ال ning ا harfi o'qilishi yoki o'qilmasligiga qarab arab alifbosi teng 2 qismga bo'linadi. Ularning 14 tasi "qamariya" (oy) harflari va qolgan 14 tasi "shamsiya" (quyosh) harflaridir. Yuqoridagi gapda "salom" so'zidagi "s" harfi shamsiya harf bo'lganligi uchun "al-salom" emas, "as-salom" bo'lib kelgan. Bundan tashqari, o'zbek tili izohli lug'atida aniqlik artikli yaxlitlanib qolgan so'zlar talaygina. Masalan, alvido, algebra, almisoq, al'amon (olomon), alhazar va boshqalar.

Arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlar tarkibida aniqlik artikli "Al" mavjud. Misol tariqasida quyidagi so'zlarni olishimiz mumkin: Albatta [a. *الباتّة* *shubhasiz*] Bu so'z asli *al* aniqlik artikli va "kes-", "bajar-" kabi mahnolarni anglatuvchi *batta* fehlining *batt(un)* masdaridan *-at(un)* qo'shimchasi bilan hosil qilingan *battat(un)* shaklidan tuzilgan. Arab tilida uzil-kesil, qat'iy ravishda, qat'iy, batamom [6.43] mahnolarini bildiradi. O'zbek tilida bu so'z fikrning yoki ish-harakatning qat'iyligini, muqarrarligini, shubhasiz, modal mahnolarini hamda kirish so'z vazifasida kelib, shunday mazmunli munosabatni bildiradi; shubhasiz, turgan gap, tabiiy, bo'lmasa-chi [4.1,68] mahnolarini anglatishga xizmat qiladi.

Alvido (a. *الوداع* – *xayr*, *ko'rishguncha*, *xush qoling*) Bu arabcha so'z *al* aniqlik artikli bilan *vidāh(un)* so'zidan tarkib topgan bo'lib, o'zbek tiliga bu ikki qismni yaxlitlab, cho'ziq *ā* unlisi *ā* unlisiga almashtirib, so'z oxiridagi ع (aynni) tashlab qabul qilingan: *al-vidāh* → *alvidā* (*alvido*) [5.II,27]. O'zbek tilida undov so'z sifati abadiy xayrlashuv, vidolashuvni bildiradi [4.1,68]. Arab tilida bu so'zning *vadā'(un)* va *vidā'(un)* shakllari mavjud bo'lib, vidolashish, vidolashuv, xayrlashuv, kuzatish; *al-vidā' ul-axīru* – so'ngi, oxirgi vidolashuv, *haflat ul-vidā'i* – tantanali vidolashuv mahnolarini anglatadi. Shuningdek, bu so'z arab tilida ham aniq holatda undov so'z sifatida ham qo'llaniladi: *al-vidā'u!* Alvido! [6.904]. *Alvido endi, yo'ng'ichqazor!..* *Yo'q-yo'q, men o'lmayman* (Sh.Xolmirzayev).

Ma'lumki, ulug' ajdodlarimizning ismlari yoki taxalluslari oldidan ال (*al*, *at*, *as*, *ash*, *az*) kabi so'zlar qo'llaniladi. Masalan, Imom al-Buxoriy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Lays as-Samarqandiy, Qaffol ash-Shoshiy, Mahmud az-Zamaxshariy va hokazo. Yuqorida ta'kidlanganidek **al** oldida kelayotgan so'zning bosh harflari shamsiya harflari bo'lganligi uchun *al* emas *at*, *as*, *ash* va *h.k* shaklida kelgan.

Shu jumladan arab tilida yozilgan asarlarni o'zbek tiliga olib o'tilganda ularda ham ال aniqlik artikli saqlanib qolgan. Bunga Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-Mufasssal", "Al-Kashshof", Ibn Xaldunning "Al-Muqaddima" kabi asarlari misol bo'la oladi.

Bundan tashqari, izofa birikmasida “ ال ” artiklini faqat ismlarning oxirida kelayotgan ot oladi, undan avval kelayotgan barcha otlar “ ال ” artiklini ham tanvinni ham olmaydi. Bularga misol qilib, “Mahbub ul-qulub”, “Funun ul-balog‘a”, “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois” singari ma‘lum va mashhur asarlarni keltirishimiz mumkin.

Shuningdek shu kabi asarlardagi ال aniqlik artikli o‘zbek tilida yozilganda turli muhokamalar va bir to‘xtamga kela olmaslik kuzatiladi. Biron bir asar yoki ilmiy jurnallarda **al** ning ishlatilishi turli holatlarda ifodalangan. Masalan, bir joyida “Hayrat-ul abror” , boshqasida esa “Xazoyin ul-maoniy”, “Dorul-huffoz” deb keltirilgan. Bundan tashqari, al artikli “Xazoyin ul Maoniy” shaklida kelgan. Xulosa qilishimiz mumkinki, bularning barchasi aniqlik artiklining o‘zbek tilida ifodalashda yagona to‘xtam bo‘lmaganligidan kelib chiqqan. Izofa birikmasida **al** artiklining kelishi qoidasiga asoslanib, artiklni ismlarni oxirida kelgan otning oldiga qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Arab tili”/ Mirqobil Hasanov. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, Global Books nashriyoti, 2019. 39,51,99-betlar.
2. O‘zbek tilining imlo lug‘ati/ A.Madvaliyev, E.Begmatov; muharrir N.Mahmudov. –Toshkent, Akademnashr, 2013.
3. <https://library.ziynet.uz>
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II, – Тошкент, Университет, 2003.
6. Ан-На йм. Арабча – ўзбекча луғат. – Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2003.